



O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI VA HUNARMANDCHILIGINING MADANIY MEROS SIFATIDAGI AHAMIYATI

Meliboyeva Sarvinoz

Qo'qon davlat universiteti

katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining milliy madaniy meros sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Xalq amaliy san'atining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayotidagi o'rni hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik, madaniy meros, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, kulolchilik, kashtachilik, zargarlik

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy dunyosi va milliy o'zligini aks ettiruvchi muhim omillardan biri uning madaniy merosi hisoblanadi. Madaniy meros xalqning asrlar davomida shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zida mujassam etib, avlodlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. O'zbek xalqining boy madaniy merosi tarkibida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi alohida o'rin egallaydi. Ushbu soha xalqning mehnat faoliyati, estetik qarashlari, urf-odatlar va turmush tarzini aks ettiruvchi noyob qadriyatlar majmui sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib, bu yerda amaliy san'at va hunarmandchilikning turli yo'nalishlari rivojlangan. Arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar va etnografik tadqiqotlar kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, misgarlik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik va to'quvchilik kabi hunarmandchilik turlarining uzoq tarixiy taraqqiyot yo'liga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon, Rishton va Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarda shakllangan hunarmandchilik maktablari milliy san'at taraqqiyotining muhim markazlari sifatida tanilgan.



Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki xalqning dunyoqarashi, estetik didi va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi madaniy hodisadir. Hunarmandlar tomonidan yaratilgan buyumlarda xalqning tarixiy xotirasi, milliy an'analari va badiiy tafakkuri mujassamlashgan. Shu bois xalq amaliy san'ati namunalari madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, ularni asrash va rivojlantirish jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari natijasida dunyo xalqlarining madaniy aloqalari kengayib borayotgan bir paytda milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib etish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va ommaviy madaniyat ta'siri ayrim an'anaviy san'at va hunarmandchilik turlarining unutilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi namunalarini ilmiy o'rganish, ularni yosh avlod ongiga singdirish hamda madaniy meros sifatida asrab-avaylash zarurati ortib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligini qo'llab-quvvatlash, hunarmandlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, an'anaviy san'at namunalarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada o'zbek hunarmandchiligi mahsulotlari nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro ko'rgazma va festivallarda ham yuksak e'tirof etilmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan qaranganda, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy o'zlikni anglashiga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishning madaniy meros sifatidagi ahamiyatini chuqur tadqiq etish, uning tarbiyaviy va ma'rifiy imkoniyatlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biridir.



Mazkur maqolada o'zbek xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyoti, uning milliy madaniy meros sifatidagi o'rni, jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri hamda yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

XIX asrning birinchi yarmigacha hunarmandchilik sohasida natural ishlab chiqarish yetakchi o'rin egallagan bo'lsa, ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni, Markaziy Osiyo CHor Rossiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilganidan keyin barcha sohalarda bo'lgani kabi milliy hunarmandchilik sohasida ham sanoatlashuv jarayoni kuzatildi. "XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladi. To'quvchi qo'l dastgohida 17-18 soatdan ishlab bor-yo'g'i 4-8 arshin (1 arshin 72.12 smga teng) mato ishlab chiqarar, lekin oladigan maoshi arzimagan miqdorda edi. Xonavayron bo'lgan hunarmand-kosiblarning soni ortib bordi".

SHu sababli XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning dastlabki choragiga qadar garchi sanoatlashgan bo'lishiga qaramay, hunarmandchilik sohasidagi ishlab chiqarish aholining maishiy ehtiyojlarini qondirishgagina xizmat qilar edi. "XIX asr oxirlarida oikada sanoat ishlab chiqarishi, asosan, aholining maishiy ehtiyojlanga xizmat koisatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi.

Ko'chmanchi aholi orasida hunarmandchilik: kigiz tayyorlash, uy jihozlari ishlab chiqansh, oila ehtiyoji uchun teri va mo'yna ishlab chiqarish keng yoiga qo'yilgan edi. Bu yerda kigiz (namat) tayyorlash ancha rivoj topgan, chunki unga talab hamma vaqt katta boigan. Umuman, Turkistonda bo'z, atlas, slioyi to'qish. do'ppido'zlik, temirchilik. zargarlik keng rivoj topgan. Qandolatchilik, novvoylik, shirmonpazlik ham taraqqiy etgan.

Uy-ro'zg'or ishlarida, xo'jalikda kerak boladigan jihozlar: egar-jabduq, sandiq, mis idishlar, xalatlar, charm buyumlar, sopol, yog'och, kumush, oltin buyumlar, ketmon, pichoq, maxsi, kalish kabi ko'pgina narsalar ishlab chiqarilgan.



Mintaqa iqtisodiyotini o'rganish uchun Toshkentda ochilgan O'rta Osiyo sanoat va qishloq xo'jaligiga doir birinchi (1886 y.) va ikkinchi (1890 y.) Turkiston ko'rgazmalarida mahalliy hunarmandlar hamda sanoat korxonalari ishlab chiqargan buyumlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari namoyish qilinganda gilam to'quvchilar, qurolsozlar, zargarlar va to'quvchilarning tayyorlagan buyumlari ko'rgazma ishtirokchilarining diqqat-e'tiborini qozongan edi".

XX asrning birinchi choragida "Markaziy Osiyoda iste'mol buyumlari ishlab chiqarishda mayda hunarmandchilik sanoati katta salmoqqa ega bo'lgan. U o'lka shaharlarining qadimdan o'ziga xos hunarmandchilik korxonasi sifatida shakllangan, bir yoki bir necha hunar bo'yicha ixtisoslashgan mahallalarda joylashgan. Ishlab chiqarilgan buyumlar ustaxonalar-do'konlarning o'zida yoki bozorlarda sotilgan. Toshkentning CHorsu maydonida hunarmandlar qo'lda yasalgan 143 turdagi buyumlarni sotgan".

Qayd o'tilganidek, O'zbekiston hududida milliy hunarmandchilikning progressiv rivoji o'rnini egallagan regressivlik bevosita Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekistonda sobiq Ittifoqning davlat boshqaruvi tamoyillari joriy qilinganidan keyin ro'y berdi. Bunda yetakchi sho'rocha g'oya – "yakka tartibdagi mehnat kapitalistik munosabatlarni shakllantiradi", degan qarash muhim rol o'ynadi.

Ana shu qarash "hunarmandlarning haq-huquqlari va erkin faoliyatini cheklab qo'ydi. Hunarmandchilik xususiy mulkchilikdan kooperativ mulkiga aylantirilib, artellar (kishilarning birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish maqsadlarida tuzgan ixtiyoriy uyushmasi shakllaridan biri)ga birlashtirilgan. Yakka tartibda hunarmandchilik bilan shug'ullanish man etilgan. Hunarmandlarning xususiy mulki bo'lgan 31353 ta hunarmandchilik korxonalari davlat mulki, deb e'lon qilingan, hunarmandchilik ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan. Bu holat hunarmandchilikka salbiy ta'sir ko'rsatdi va ular sonining kamayib ketishiga sabab bo'ldi, holbuki, 1917 yilda mamlakatimiz hududida 91242 ta hunarmandlar bo'lgan".



M.I.Tugan-Baranovskiy tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda hunarmandchilik sohasida kooperativ mulkning qaror toptirilishi, bu shakdagi mulkka egalikning individual-ijtimoiy ahamiyati, rivojlanish dinamikasi va oqibatlari o'rganilgan. O'rganishlar natijasiga ko'ra 1915 yilda tadqiqotchi mazkur mulk shakliga nisbatan tahliliy qarashlarini o'z ichiga olgan "Kooperatsiyaning ijtimoiy asoslari" nomli asari e'lon qilingan. Asarda hunarmandchilik kooperatsiyasining kutilganidek muvaffaqiyatga erishmagani bir necha sabablar bilan izohlanadi. Muallifning qayd etishicha, asosiy sabablar quyidagilardan iborat: mahalliy hunarmandlarning islohotlarga nisbatan befarqligi, zamonaviy buxgalteriya asoslari bilan tanish emasliklari, qonunlarni bilmasliklari. Biroq, bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozim, M.I.Tugan-Baranovskiy hunarmandchilik kooperatsiyasining individual-ijtimoiy ahamiyatini, unning rivojlanishiga ko'rsatilgan ta'sirlarni bir yoqlama yoritgan. Eng asosiy sabablar: milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilishga nisbatan muayyan cheklovlarning kiritilgani (masalan, yakka tartibda va oilada hunarmandchilik bilan shug'ullanish man etilishi); tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilishning bozorlardagi imkoniyat qisqartirilgani, hunarmandchilik artellari (kooperativ mulki)dan soliqlar undirilishining jorish etilgani, hunarmandchilik bilan shuhullanib kelgan oilalarning xususiy mulk (hunarmandchilik jihozlari, ish qurollari va vositalari)dan ajralishi va hokazolar.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning qayta shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Aynan shu davrda keng ko'lamda rivojlanishiga sun'iy to'siqlar qo'yilgan sohani har tomonlama rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Milliy hunarmandchilik an'analarini aholi, xususan, yoshlar o'rtasida samarali targ'ib qilish, hunarmandlarning erkin ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bir qator muhim hujjatlar qabul



qilindi. Mazkur hujjatlar soha rivojini ta'minlash uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

1997 yilning 31 martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1741-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatda milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'alarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatish muhim ijtimoiy maqsad ekaniga alohida urg'u berildi.

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi, xalq ustalarining respublika "Usto" birlashmasi va "Musavvir" ilmiy-ishlab chiqarish markazi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bo'linmalarga ega bo'lgan "Hunarmand" uyushmasini tashkil qilinishi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tayyorlashga qaratilgan amaliy harakatlarning samaradorligini ta'minlash imkoniyatini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
3. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 384 b.
4. Bulatov S.S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 168 b.